



# **PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI**

**Respublika ilmiy-amaliy  
anjumani materiallari  
(2021 yil 17 may)**

**2021-yil**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Abdulla Qodiriy nomidagi  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI**

**Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari  
(2021 yil 17 may)**

**UDK: 37.06(05)**

**BBK: 74.00**

**E-59**

**“Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to`plami**

(Jizzax, 2021 yil 17-may, O`zbekiston). - Jizzax. 2021. – 504 b.

**MAS`UL MUHARRIR:**

**Sh.S.Sharipov** – pedagogika fanlari doktori, professor

**TAHRIR HAY’ATI:**

**Kushvaktov N.X.** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Qodirov G‘.** – biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**To’raqulova I.X.**- pedagogika fanlari nomzodi

**Atamurodova R.Q.** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Jumanazarova D.U.**- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Hamzayev H.X.**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

**Primov Sh.Q.**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

**TAQRIZCHILAR:**

**X.A.To’raqulov** – Pedagogik ta’lim xalqaro fanlar akademiyasi akademigi, ANTIQUE WORLD xalqaro ilmiy akademiyasi akademigi, “Turon” fanlar akademiyasi akademigi, A.G.Nebolsin nomidagi xalqaro mukofot lauriyati, texnika fanlari doktori, professor, Xalq maorifi a’lochisi.

**A.Nurmanov** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**To`plam muharrirlari:** M.R. Isaqulov, G.M. Almuratova, O.A. G’aniyev, T. Ergashev

Ushbu to’plam Jizzax davlat pedagogika institutida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagи № 78-F sonli Farmoyishiga asosan joriy yilning 17 май kuni Jizzax davlat pedagogika instituti Umumiy pedagogika kafedrasida “Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallарidan iborat.

To`plamdan joy olgan tezislarda keltirilgan ma`lumotlarning to`g`riliгiga mualliflar javobgardirlar

қизлар ташкил этган (80,8 %). Қизларда заҳарланиш, ўғил болаларда эса йўғон томирларни қирқиши ва ўз-ўзини осиш ҳолатлари юқори натижани кўрсатган.

Шунингдек, ўсмирда инқирозли вазият ундаги ички дунёning ўзга-ришларига олиб келади, ундаги “Мен” тизимининг бузилиши, ўз-ўзини англаш, ўз-ўзига баҳо бериш, нигилизм, чорасизлик, ахлоқий мувозанат-сизлик, хушомадгўйлик хусусиятлар кузатилади. Бу ўзгаришлар ўсмирдаги шаклланган ҳаёт шароити тарзида энди яшаш имконияти йўқлиги, шаклланган “Мен”ни сақлаб қолишга интилишда акс этган ўтиш вазиятида ўз-ўзини йўқотиб қўйиш, шаклланган девиант хулқ кўринишлари ўсмирнинг ўзига хос компенсаторлик механизмлари сифатида юзага келади. Бу ҳолат ўсмир кечинмалари характерига боғлиқ бўлиб, конструктив бўлмаган кечин-малар таъсирида шаклланган ўсмирнинг “мен”и бир томондан компенсатор- ҳимоя механизми сифатида инқирозли вазиятдан чиқиб кетиш вазифасини ўтаса, иккинчи томондан, ўсмирнинг ижтимоий мослашувига халақит бера-ди. Бу эса ўсмир олдида турган вазифаларни хал этишга тўсқинлик қиласи, ўсмирда ўзини, юзага келган вазиятни яхши томонга ўзгариши мумкин эмас-лиги ҳақида турғун фикр пайдо бўлади. “Ўз-ўзини” йўқотиши пайдо бўлиши билан ўсмирлар ички дунёсини қайта қуриш, қарама-қаршиликларини ҳал этиш йўлларини излаш бошланади, янги “Мен”шаклланиши учун замин изланади.



Коррекцион тадбирлар ўтказилиши натижасида ўсмир шахсида қуйидаги ижобий натижаларга эришиш имконини беради:

- Ўсмир шахси ривожланишига имкон берувчи “ўзини топа олиш“ ҳиссини шаклланиши асосида “тикланиш” жараёнинга ўтиш;
- Тезкор адаптация, ўсмир шахси учун энг мақбул, бошқаларнинг тажрибасида синовдан ўтган йўлни танлашга ёрдам бериш;
- Ўсмир шахси тизимини қайта қуриш, ундаги юзага келган вазиятни ҳал қила олмаслик ҳисси юзага келган “мен”ни йўқотиши;
- Вазиятни янгича баҳолаш, вазиятни ҳал этишининг янги имконият-ларини топиш асосида қайта қуриш;
- Қарама- қаршиликларни ҳал этишининг янги конструктив усулларини топишда ўсмир шахсининг ички имкониятларини фаоллаштириш;
- Янги индивидуал “Мен” ижодий образини яратиши.

Инқирозли кечинмаларни ўсмир бошидан кечириши натижасида ҳаёт мазмуни ва мақсадини қайта англаш ва қайта қуриш, ўз ўтмишини янгича баҳолаш, етакчи мотивларнинг бартараф этилиши ёки ўзгаришида намоён бўлади. Турли тоифадаги шикастланиш вазиятлари ўсмирлар учун аҳамият-лилик даражасига кўра турлича таъсир кўрсатади. Бунда ўсмир шахсида шаклланган турғун, аҳамиятли хусусиятлар бузилишига олиб келувчи омил-лар шаклланганда ҳимоя механизмлари ишга тушади. Кучли шикастлан-тирувчи омилларни ҳис этган ўсмир уларни такрорланишидан

хавотир-ланади, бу эса ўз навбатида салбий эмоционал кечинмаларни пайдо бўли-шига сабаб бўлади. Натижада ўсмир ўз-ўзини идора эта олмайди, турли хатоларга йўл қўяди. Ундаги хотира, диққат координациясининг бузилиши ўқишдаги ўзлаштириш даражаси пасайиб кетишига сабаб бўлади. Эмоционал зўриқишлир ўсмирларда психосоматик бузилишилар негизида келиб чиқувчи жисмоний соғломлик ҳолатига салбий таъсир кўрсатади. Узоқ давом этган стрессли вазиятларда ўзини тинчлантиришнинг сунъий йўлларини излаб топиш эҳтиёжини келиб чиқиши натижасида ўсмирлар эрта чекиши, турли токсин моддалар, алькогол ва наркотик моддаларни истеъмол қилишни бошлайдилар.

Статистик нуқтаи назардан суицидал уриниш содир этган ўсмирлар орасида алкогол ва гиёхванд моддаларни истеъмол қилгандар. Ўсмирнинг шикастлантирувчи вазиятлар натижасида шаклланувчи эмоционал кечинма-лари, унинг вазиятни ҳал этиш усуслари ҳақидаги иллюзияларини бузили-шига олиб келади. Ўсмир ўзидағи имкониятларни етарлича баҳолай олмайди. Мактабда яхши ўқиш ўсмирга ҳимояланганлик ҳиссини бермаса, бу ўсмир-нинг эришган натижаларига атрофдагилар бефарқ бўлсалар, мактабдаги ўқиши жараённида қўлга киритган ютуқлари ўсмир учун қувонч бахш этмайди. Бу ҳолда ўсмир хаёлий иллюзия оламидан реал ҳақиқий олам қийинчилик-ларини енгиш учун ўзида ишонч шаклланганлиги асосида олдидағи тўсиқларни енгишга интилади, яъни ёш нуқтаи назаридан каттаришига олиб келади. Агар хаёлот, иллюзия дунёсидан чиқиб кета олмаса, у ҳолда ўсмир рухиятида янги иллюзиялар пайдо бўлади ва ўсмир яна ўз хаёлот дунёсида яшашни давом эттиради.

Хулоса қилиб шуни айтиш жоизки, суицидал фаолликнинг ҳар қандай белгиси бор ўсмир катталар назоратида бўлиши лозим. Бу назорат меъёрда бўлиши керак. Юксак маданиятли, билимдон, зукко фарзандларгина кела-жагимиз пойдевори бўла олишини ота-оналар, педагоглар, мураббийлар, психологлар доимо ёдларида сақлашлари, ўзлари эса ҳар томонлама намуна бўлишлари талаб этилади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Амбрумова А. Г., Бородин С. В., Михлин А. С. Предупреждение самоубийств. — М., 1980. -105 с.
2. Ефремов В.С. Основы суицидологии. –СПб., 2004.-479 с
3. Мартыненко А. В. Суицид в молодежной среде // Знание. Понимание. Умение. — 2005. — № 1. — С. 139-141.
4. Qarshiboyeva, G.Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
5. Каршибаева, Г. А., & Эшмуратов, О. Э. (2018). Факторы суициdalного поведения, влияющие на формирование подросткового поведения. Молодой ученый, (49), 235-237.

## **OILAVIY MUNOSABATLAR VA ULARNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI**

**Qodirova Malikaxon Qaxramonovna, JDPI, katta o'qituvchi  
Toshtemirova Shaxlo Abduraxmon qizi, JDPI, I-bosqich talabasi**

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar orasiga ro'y

beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo‘lishgani sari, ular o‘rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ularda umumiylilik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki “yarimta jumladan” ham fikr ayon bo‘ladigan bo‘lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni - bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig‘iz munosabatlarga kiradi. Bunday tig‘izlik oilaning barcha a’zolari o‘rtasida bo‘lishi mumkin.[1]

Oila a’zolariga ota-onha hamda farzandlarni kiritamiz. Ayrim holatlarda bobo-buvilar, amaki va kelinlar (ayrim oilalarda) bir oila sifatida birgalikda yashaydilar. Oila a’zolari sonining ko‘p va kamligiga qarab ham munosabatlarning har xil tartibda bo‘lishini belgilashimiz mumkin. Oila a’zolarining ko‘pligi munosabatga kirishishning ko‘payishiga olib keladi. Bunda ota-onha hamda farzand munosabatlaridan tashqari qaynona-kelin, qaynotakelin, bobo-nabira, buvi-nabira, amaki-jiyan kabi munosabatlarni kuzatish mumkin.[2]

Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki inson shaxsining eng nufuzli va yetakchi faoliyatlaridan biri bo‘lgan muloqot va u orqali o‘zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylilik, o‘xshashlik, uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-onha va farzand orasidagi munosabatlarning o‘ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta’sir etadi.

Suhbat jarayoni mazmunli, qiziqarli, zerikarli, asabiylashtiradigan, charchadigan kabi qator holatlarni yuzaga keltiradi. Bunday holatlar inson psixologiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ruhiy holatdagi buzilish natijasida insonda o‘ziga va atrofga bo‘lgan munosabat o‘zgaradi, o‘z faoliyatidan adashish, o‘z maqsadlaridan adashish, qiziqishlarining so’nishi kabilar kuzatiladi. Eng yomoni atrofdagilarga salbiy ta’sir o’tkazishni ko‘rish mumkin. Kimningdir dilini og’ritib qo‘yish, ko‘ngligi ozor berish, asabiga tegish, hafa qilib qo‘yish yuzaga keladi.[5]

Sharq madaniyati va ma’naviyati shu qadar noyob, betakror va jozibali bo‘lib, buning asosiy sabablaridan biri o‘zbek oilasining betakror muhiti, undagi an’analar, rasm-rusmlar va qadriyatlarning barhayotligidadir. Zero har qanday oila inson taqdiri va kamolotini, kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi bilan xarakterli hisoblanadi. Ayniqsa, undagi an’analar, milliy qadriyatlар ma’naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni, ya’ni sog‘lom avlodni tarbiyalash, voyaga etkazishda ularning o‘rni va ahamiyati kattadir.

Demak, oila-hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasl qanday inson bo‘lib yetishishiga ta’sir ko‘rsatadigan katta tarbiya o‘chog‘idir. Shunday ekan oiladagi sog‘lom psixologik muhit oila bardavomligida muhim hisoblanadi. [4]

Sog‘lom psixologik muhit oila a’zolarining o‘zaro bir-birini tushunishi, hamkorlikda muammolarni yechish, munosabatlardagi kelishuvdir. Munosabatlardagi kelishuv, ya’ni oila a’zolarining bir-birini eshita olishi, tinglashi, tushunishi, qo’llab-quvvatlashi, bir-biriga yordam berishi kabilarni o‘z ichiga oladi. Bu oila farovonligidir.

Oila farovonligi-milliy farovonlikning asosidir. Oilada eng avvalo: halollik, rostgo‘ylik, mehr-oqibat, or-nomus, sharmu-hayo, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va osoyishtalik hukm suradi. Bunday farovonlik oilaviy

munosabatlarda ham o'z aksini topadi. Masalan oilaning mehtatsevarlik fazilati er-xotin, qaynona-kelin yoki ona-bola, ota-bola o'rtasida ortiqcha tushunmovchiliklar bo'lishini ta'minlaydi. Shu kabi or-nomus, sharmu-hayo kabi fazilatlar oila obro'si, shani kabi fazilatlarni yuzaga keltiradi. Natijada oilaviy munosabatlarning samimiyligi, muomalaligi va o'zaro hurmatga erishiladi. Bu o'z navbatida inson psixologiyasining mukammalligi va sofligini ta'minlaydi. [2]

Bizga ma'lumki, oila muhiti qanchalik axloq-odobning madaniyat qoidalari va milliy qadriyatlari asosida tashkil topgan bo'lsa, bola shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, shaxs shunchalik barkamol, komil inson bo'lib yetishadi. Bolani ruhiy jihatdan ham rivojlanishini doimiy nazorat qilib boorish lozim. Oila tarbiyasidagi birgina xato bola ruhiyatini tushkun holatga olib kelishi mumkin. Bunda oilaviy munosabatlar ham muhim.

Oilada ota-onasi o'rtasidagi nizo ota-onasi-farzand o'rtasidagi nizo darajasiga olib kelishi ko'p kuzatilgan. Natijada bolaning ruhiy holatida o'zgarish sodir bo'ladi. Oila a'zolariga bo'ysinmaslik, aytganini qilmaslik, qarshi chiqish, keyinchalik yomon odatlarga odatlanish, uydan qochib ketish kabi. Eng kata muammo bola xotirasida bu ruhiy tushkunlik bir umr muhrlanadi va qiynaydi. U bunday savollarga javob topishga har qancha urinsada hech qachon javob topolmaydi. [7]

O'zbek oilasidagi an'anaviy ta'llim-tarbiya namunalarini farzandlarimizga amaliy tarzda o'rgatib, oilaviy munosabatlar madaniyatini yuksaltirishga da'vat etib shu orqali ota-onasi va bolalar o'rtasidagi munosabalarni oqilona tashkil etishga yordamlashish hammamizning vazifamizdir. Yosh avlodga ma'naviy, axloqiy tarbiya berishning yo'llari va vositalari xilma-xil bo'lib, bular ichida yoshlarni xalqimizning milliy an'analari ruhidar tarbiyalash alohida o'rinni tutadi.

Haqiqatdan ham, yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning ijodchisi bo'lishi bilan birga asrlar davomida yaratilgan bu ma'naviy boyliklar yana xalq manfaatiga xizmat qiladi. Milliy an'analalar xalqimizning ana shunday ma'naviy boyliklaridan biridir. [5]

Ma'lumki, an'analalar muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarining odatlari, yurish-o'tirish qoidalari, axloq normalari bo'lib, asrlar davomida yashab kelsada, avloddan-avlodga o'tar ekan, mazmuni yanada boyiydi va insoniyat donishmandligining ifodasi sifatida xalq pedagogikasiga aylanadi. Bu donishmandlik odamlarning turmushi, his-tuyg'ulariga singib, ularning shunchaki qarashlari va ideallarigina emas, shu bilan birga, ijtimoiy ong formasi ham bo'lib qoladi. Ularda odamlarning dildagi, ko'nglidagi, psixologiyasidagi eng ezgu orzu istaklari sifatida o'z ifodasini topadi. [4]

Bunday qadriyatlardan oilada munosabatlar orqali yetkaziladi. Sog'lom muhit hukm surgan oilalarda qadriyatlimizning singdirilishi ota-onasi yoki oilaning boshqa kattalari namunasi asosida amalga oshiriladi. Aksincha nosog'lom muhit hukmronlik qilayotgan oilalarda bunday munosabatlarning o'zi yo'q. Otaning o'g'liga gapi o'tmasa qanday qilib an'analaramizni o'rgata oladi hatto oila qonunlarini singdira olmaydi. Bu holat har ikkisining psixologiyasiga aks ta'sir ko'rsatadi. Natijada ular o'rtasida tushunmovchilik, bir-birini qadrlamaslik hatto o'zaro suhbatning yo'qolishigacha olib keladi. [6]

Ota-onalarning bolalarni sevishi, o'z navbatida farzandlarning ota-onani astoydil hurmat qilishi oilaviy munosabatlarda yaqqol ko'zga tashlangan. FARZANDINI sevgan ota-onasi har doim farzand tomonidan ardoqlanadi. Har ikki tomon ham bir-birini avaylaydi, hurmat qiladi. Munosabatlarning bunday ko'rinishi oilaning har tomonlama salomatligini ta'milaydi. Chunki munosabatlar buzilganda bilamizki yoshi kattalarda qon bosimining ko'tarilishi, yurak

37	<i>Қаршибоева Г.</i> Ўсмирлар суицида хулқининг психологик ҳолатлари.....	173
38	<i>Қодирова М., Тоштемирова Ш.</i> Оилавий муносабатлар ва уларнинг инсон психологиясига таъсири. ....	175
39	<i>Пардаева К.</i> Ахлоқий тарбиянинг мукаммал талқини.....	178
40	<i>Тўракулов Л., Атамуродов Р.</i> Ўзбек оиласлари бузулишининг бугунги кундаги айрим педагогик ва психологик сабаблари.....	181
41	<i>Тоиров М.</i> Олий таълим муассасасида бўлажак бошланғич синф ўқувчилари касбий маданиятининг хусусиятлари.....	184
43	<i>Махамматова Ф., Турдимуродова М.</i> Умумтаълим мактаблари ўқувчиларини меҳнат фаолиятига тайёргарлигини шакллантириш механизациялари.....	187
44	<i>Бойтўраева Н.</i> Бошланғич синф ўқувчисининг мустақил таълимни ривожлантиришнинг шарт-шароитлари. ....	191
45	<i>Сиддиқова С., Холбоева Г.</i> Ўқувчиларнинг билимларни билиш ва ижодий фаолиятининг фаоллашуви ва самарадорлиги таҳлили.....	192
46	<i>Сиддиқова С., Мирзаева У.</i> Узлуксиз таълим жараёнида мустақил фикирловчи, ижодкор шахсни тарбиялашнинг педагогик психологик масалалари. ....	195
47	<i>Сиддиқова С., Мўминова М.</i> Таълим жараёнида ўқувчиларнинг билиш, ижодий фаоллигини ошириш. ....	197
48	<i>Қаюмов А. Турдиев Н.</i> Синф раҳбари ва ёшлар камолати.....	200
49	<i>Зокирова У. Утамуродова Г.</i> Бўлажак ўқитувчиларни маънавий эстетик тарбиялашда давлат таълим сиёсати. ....	202
50	<i>Файзиева С.</i> Мактабгача ёшдаги болалар хаётини шакиллантиришнинг назарий ва педагогик асослари. ....	205
51	<i>Абдувасиев X. Холмўминов А.</i> Ўқувчиларга мактаб устахоналарида ишлашда техника хавфсизлик коидаларини ўргатиши.....	209
52	<i>Назарова Ш.</i> Ўкув технологиялари ва уларнинг педагогик ва психологик жихатлари. ....	211
53	<i>Шоймордонова Н.</i> Таълим жараёнини индивидуал изланишларда замонавий инновацион таълим технологиялари.....	213
54	<i>Тўракулов X.А. Сайдахматов .С.С.</i> Инновацион –интегратив таълимга оид таълим мазмунларини шакллантириш.....	217
55	<i>Қурбонов Н., Холтураева М.</i> Мактаб ўқитувчисининг ижодкорлик компітенцияси ривожлантириш усууллари.....	219
56	<i>Мунарова Р.У. Пўлатова Н.М. Каримова М.</i> Нотўлиқ оиласларда ўсмирларни миллий-маънавий тарбиялаш масалалари.....	221
57	<i>Ортиқов О., Эшбекова М.И.</i> Оиланинг гавҳари – фарзанд.....	224
58	<i>Абдукаримов Н.А.</i> Соғлом оила-соғлом турмуш тарзида вужудга келиш омили. ....	226
59	<i>Бурхонов Т.М.</i> Ёшлар орасида маънавий тарбияни амалга оширишдаги муҳим ҳамкорлик.....	228

### 3-шўба

#### III SHO'BA. ZAMONAVIY TA'LIM – TARBIYA JARAYONLARIDA

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI

1	<i>Тұрақұлов X.А.Бұлтаков С.Х</i> Цивилизацион педагогик тизимларни шакллантириш босқичлари .....	231
2	<i>Хакимова М.Ф.</i> Олий таълимга инновацион таълим ва рақамли технологияларни қуллаш зарурология ..... .....	234
3	<i>Очилова Г.</i> Ахборот коммуникатия технологиялари воситаларидан таълим жараёнларида фойдаланишнинг имкониялари..... .....	236
4	<i>Шеранова М.</i> Шахсни тарбиялашда интелектуал ва ижодий сифатларни ривожлантириш йўллари. ....	239
5	<i>Тұрақұлов У.Х. Турсунхўжаева З.</i> Дарс машғулотларини олиб боришнинг алгаритмик босқичлари. ....	242
6	<i>Бекназарова О.М</i> Жаҳон миқёсида ва Ўзбекистон Республикасида Инклюзив таълим тизимининг эътироф этилиши.....	244
7	<i>Шакарбоева Ш.</i> Ўз устида ишлаш фаолиятининг психология тадқиқотлардаги талқини. ....	247
8	<i>Абдурасурова Д.</i> Замонавий педагогик технологиялар дарснинг самарали ва сифатли бўлашида “CASE-STUDY “ усулларининг ўрни.....	251
9	<i>Тангирова Д., Қўчкорова Ф.</i> Дудукланишнинг келиб чиқиши сабаблари ва уни машқлар асосида коррекциялаш йўллари.....	253
10	<i>Эгамназаров М., Лутфуллаева Ж.</i> Шахсга йўналтирилган таълим технологияларини табиқ этиш орқали талабаларда коммуникатив қобилятларини ривожлантириш тамоиллари ва механизмлари.....	256
11	<i>Темирова Г. Неъматова Г.</i> Турли нутқ бузилишларини коррекциялашда массаж технологиясидан фойдаланиш.....	258
12	<i>Музаффарова Х.Р.Лапасова</i> Таълим –тарбия жараёнда инновацион усуллардан фойдаланишда ўқитувчининг маҳорати.....	260
13	<i>Махамматова А., Абдурахмонова М.</i> Талабаларда мусиқий қобилятларни ривожлантиришга йўналтирилган компьютер дастурларидан фойдаланиш.....	263
14	<i>Мавлонова С.</i> Бўлажак тарбиячиларнинг касбий компотентлигини ривожлантиришнинг назарий асослари. ....	266
15	<i>Қодирова М., Мардоноава Д,</i> 6-7 ёшли болалар идрокини ўйин технологияси асосида ривожлантириш. ....	268
16	<i>Жалолова Ю.</i> Ўкувчи ёшларда илмий дунёқарашни шакллантиришда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш.....	270
17	<i>Абдурасулов Д, Турсунов Қ,</i> Спортчи шахсининг психик жараёнини ўрганиш методлари.....	273
18	<i>Акбарова С.Ш,</i> Замонавий таълим –тарбия жароёнда педагогнинг криатив компетенцияларини шакллантириш зарурология ..... .....	276
19	<i>Алибеков Д.</i> Инновацион ёндашув ва модернизациясига асосланган таълим стратегиясининг асослари. ....	278
20	<i>Алимова Қ., Назаров Т., Эрматов Д.</i> Талаба ёшларни илм фанга кизиктириш йўл- йўриклари.....	281
21	<i>Атамуродова Р., Исломова Н.</i> Адабий таълимга илмий методик ҳамда технологик ёндашув тамойиллари. ....	283
22	<i>Темирова Г.</i> Кохлеар имплатли болалар билан олиб бориладиган	